



**QADIMGI JAMIYATLAR XO'JALIGI VA UNING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI**

Jumaboy Ismoilov

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti Arxeologiya

Mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Email: ismoilovjumaboy7@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamiyat davridan boshlab bronza davrigacha bo'lgan davrda insoniyat xo'jaligi va madaniy hayotining shakllanishi va rivojlanishi arxeologik manbalar asosida yoritilgan. Paleolit, mezolit, neolit, eneolit va bronza davrlarida sodir bo'lgan xo'jalik-madaniy o'zgarishlar, ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish jarayonlari, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va metallurgiyaning vujudga kelishi tahlil qilingan. Shuningdek, Kaltaminor, Joytun, Tozabog'yob, Amirobod, Qayroqqum, Sopolli va Chust madaniyatlarining xo'jalik xususiyatlari ilmiy jihatdan umumlashtirilgan.*

Kalit so'zlar: *ibtidoiy jamiyat, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza davri, ishlab chiqaruvchi xo'jalik, dehqonchilik, chorvachilik, O'rta Osiyo arxeologiyasi.*

АННОТАЦИЯ; *В статье на основе археологических данных рассматриваются основные этапы формирования и развития хозяйственной и культурной жизни населения Средней Азии от эпохи первобытного общества до бронзового века. Анализируются изменения в хозяйственной деятельности в палеолите, мезолите, неолите, энеолите и бронзовом веке, процесс перехода от присваивающего хозяйства к производящему, становление земледелия, скотоводства, ремесла и металлургии. Особое внимание уделено хозяйственным особенностям культур Кальтаминар, Джейтун, Тозабагыяб, Амиробод, Кайраккум, Сапалли и Чуст.*

Ключевые слова: *первобытное общество, палеолит, мезолит, неолит, энеолит, бронзовый век, производящее хозяйство, земледелие, скотоводство, археология Средней Азии.*

ANNOTATION: *This article examines the main stages of the formation and development of economic activities and cultural life in Central Asia from the primitive society to the Bronze Age based on archaeological evidence. The study analyzes economic and cultural transformations during the Paleolithic, Mesolithic, Neolithic, Eneolithic, and Bronze Ages, the transition from a foraging economy to a productive economy, and the emergence of agriculture, animal husbandry, crafts, and metallurgy. Particular attention is paid to the economic characteristics of the Kaltaminor, Jeitun, Tozabagyab, Amirobod, Kayrakkum, Sapalli, and Chust cultures.*

Keywords: *primitive society, Paleolithic, Mesolithic, Neolithic, Eneolithic, Bronze Age, productive economy, agriculture, animal husbandry, Central Asian archaeology.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Kirish. Insoniyat tarixining eng qadimgi bosqichlari jamiyatning shakllanishi, xo‘jalik faoliyatining vujudga kelishi va ijtimoiy munosabatlarning takomillashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson yaralibdiki, u o‘z ehtiyojlarini qondirish, yashash va omon qolish uchun jamoa bo‘lib yashashga intilgan. Dastlabki insonlar qabilaviy tuzum asosida hayot kechirib, tabiat bilan uzviy aloqada bo‘lganlar. Ushbu jarayon nafaqat butun insoniyat tarixiga xos hodisa, balki O‘rta Osiyo hududida ham o‘ziga xos tarixiy bosqichlar orqali kechgan.

Mazkur maqolada O‘rta Osiyoda paleolit davridan boshlab bronza davrigacha bo‘lgan davrda xo‘jalik turlari, madaniy jarayonlar va arxeologik madaniyatlarning shakllanishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Arxeologik yodgorliklar asosida jamiyatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bosqichma-bosqich yoritiladi.

Tadqiqot materiali va metodlari. Mazkur tadqiqot O‘rta Osiyo hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijalari, stratigrafik kuzatuvlar, tipologik va taqqoslama tahlillar asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda paleolit, mezolit, neolit, eneolit va bronza davrlariga oid yodgorliklar materiallari umumlashtirilib, ularning xo‘jalik va madaniy jihatlari tahlil qilindi.

Paleolit davri va dastlabki xo‘jalik shakllari. Paleolit davrining ilk va o‘rta bosqichlarida O‘rta Osiyo hududida yashagan odamlar hali dehqonchilik va hunarmandchilikni bilmaganlar. Ularning xo‘jaligi asosan ovchilik va termachilikka asoslangan bo‘lib, tabiatda tayyor holda mavjud bo‘lgan mahsulotlardan foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etgan. Ushbu davrda insonning tabiatga qaramligi nihoyatda kuchli bo‘lgan.

So‘nggi paleolit davriga kelib (mil. avv. taxminan 40–12 ming yilliklar) O‘rta Osiyoda insonlar turmush tarzida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Toshkent vohasi, Surxondaryo hamda mintaqaning boshqa hududlaridan 30 dan ortiq manzilgohlarning aniqlanishi bu davrda aholi sonining ko‘paygani va hududlarning faol o‘zlashtirilganidan dalolat beradi. Aynan shu davrda baliqchilik xo‘jaligi shakllana boshladi.

Mezolit davri: xo‘jalik va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar. Mezolit davri (mil. avv. XII–VII ming yilliklar) muzliklarning erishi va iqlimning nisbatan ildashuvi bilan tavsiflanadi. Bu holat insonlarning yashash muhiti va xo‘jalik faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Mezolit davrining eng muhim ixtirolaridan biri o‘q-yoyning kashf etilishi bo‘lib, bu ovchilikning samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

Ov jarayonida jamoaviylik kuchaydi: odamlar hayvonlarni jarliklarga haydab tushirish, chuqur o‘ralar qazish, qirrali tosh qurollardan foydalanish kabi turli usullarni qo‘llaganlar. Natijada mezolit davrida O‘rta Osiyo hududida xo‘jalik-madaniy jihatdan ikki asosiy guruh shakllandi:

1. Tekisliklar va daryo vohalarida – ovchilik, baliqchilik va termachilikka asoslangan xo‘jalik;

2. Tog‘li hududlarda – ovchilik ustun bo‘lgan, termachilik esa yordamchi xo‘jalik sifatida rivojlangan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Bu davrda yirik hayvonlarning qirilib ketishi va yangi fauna turlarining paydo bo‘lishi kuzatiladi. Damdamchashma II, Jebel g‘ori kabi yodgorliklardan topilgan suyak qoldiqlari yovvoyi hayvonlarni asta-sekin qo‘lga o‘rgatish jarayoni boshlanganidan dalolat beradi.

Neolit davri: ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish. Neolit davri O‘rta Osiyo tarixida tub burilish davri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda insoniyat o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan (ovchilik va termachilik) ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka (dehqonchilik va chorvachilik) o‘ta boshladi. Miloddan avvalgi VI–V ming yilliklarda janubiy-g‘arbiy Turkmanistonda bu jarayon ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi.

Joytun madaniyati manzilgohlarida sug‘orma dehqonchilik, don ekinlari (arpa, bug‘doy) yetishtirish va mayda chorvachilikning shakllanganini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, neolit davrida hunarmandchilikning muhim tarmoqlari – sopolchilik va to‘qimachilik vujudga keladi.

Sopol idishlar ishlab chiqarilishi oziq-ovqatni saqlash va pishirish imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa, to‘qimachilik baliqchilikda foydalaniladigan to‘rlar tayyorlashga ham zamin yaratdi.

Biroq O‘rta Osiyoning barcha hududlarida ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish bir xil kechmadi. Sharqiy Kaspiybo‘yi, Ustyurt, Qizilqum, Zarafshon vohasi va Farg‘ona vodiysida yashovchi aholi uzoq vaqt davomida ixtisoslashgan xo‘jalik – ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug‘ullangan.

Kaltaminor madaniyati va neolit xo‘jaligi. Xorazm vohasidagi Kaltaminor madaniyati neolit davrining o‘ziga xos ko‘rinishidir. S.P. Tolstov boshchiligidagi tadqiqotlar bu madaniyatning xo‘jaligi asosan baliqchilik va ovchilikka tayanganini ko‘rsatdi. Jonbos-4 yodgorligidan topilgan baliq (sazan, cho‘rtan, laqqabaliq) va hayvon suyaklari ushbu xulosani tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ayrim yodgorliklardan echki va qo‘y suyaklarining topilishi Kaltaminor aholisi orasida chorvachilik unsurlari ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka to‘liq o‘tish esa miloddan avvalgi III ming yillikka to‘g‘ri keladi.

Tadqiqot natijalari. Eneolit va bronza davri: xo‘jalik va madaniyatning yuksalishi.

Miloddan avvalgi IV ming yillikda eneolit (mis-tosh) davri boshlanib, metallurgianing paydo bo‘lishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Bronza davrida (mil. avv. III–II ming yilliklar) esa mis, qalay va qo‘rg‘oshin qotishmasidan tayyorlangan bronza keng qo‘llanila boshladi.

Bronza davrida O‘rta Osiyo hududida xo‘jalik ikki asosiy yo‘nalishda rivojlandi:

1. Janubiy hududlarda – sug‘orma dehqonchilik va o‘troq chorvachilik;
2. Markaziy va shimoliy-sharqiy hududlarda – chorvachilik, baliqchilik va ovchilik.

Bu davrga oid Tozabog‘yob, Amirobod, Qayroqqum, Sarazm, Zamonbobo, Sopollitepa, Jarqo‘ton va Chust madaniyatlari mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklari sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik va ilk shahar madaniyatining shakllanish jarayonini yoritib beradi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Muhokama. O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamiyatdan bronza davrigacha bo'lgan xo'jalik va madaniy jarayonlar umumiy tarixiy qonuniyatlar bilan birga mintaqaviy xususiyatlarga ega ekanligi kuzatiladi. Arxeologik madaniyatlar o'rtasidagi farqlar tabiiy muhit, iqlim sharoiti va xo'jalik ixtisoslashuvi bilan izohlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, insoniyat taraqqiyoti O'rta Osiyo hududida ham qadimgi davrlardan boshlab murakkab va bosqichma-bosqich rivojlanib kelganini ko'rishimiz mumkin. Dastlabki paleolit va mezolit davrlarida odamlar tabiatga to'liq bog'liq holda, ovchilik, baliqchilik va termachilik asosida kun kechirganlar. Bu davrlarda insonlarning yashash tarzi ko'chmanchi bo'lib, mehnat qurollari oddiy tosh qurollardan iborat bo'lgan.

Mezolit davrida o'q-yoyning kashf etilishi ovchilik xo'jaligining rivojlanishiga katta turtki berdi, hayvonlarni ovlash usullari takomillashdi va insonlarning tabiat bilan munosabatida yangi bosqich boshlandi. Aholining joylashuvi tabiiy sharoitga bog'liq holda shakllanib, tekislik va daryo vohalarida baliqchilik va termachilik, tog'li hududlarda esa asosan ovchilik ustunlik qildi.

Neolit davriga kelib insoniyat tarixida tub burilish yuz berdi. O'rta Osiyoning ayrim hududlarida, ayniqsa janubiy-g'arbiy Turkmanistonda o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish jarayoni boshlandi. Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi, sopol buyumlar yasash, to'qimachilikning paydo bo'lishi insonlarning turmush tarzini tubdan o'zgartirdi. Shu bilan birga, mintaqaning barcha hududlarida bu jarayon bir xil kechmagan: Xorazm vohasi, Kaltaminor madaniyati vakillari uzoq vaqt davomida ixtisoslashgan xo'jalik — baliqchilik va ovchilik bilan shug'ullanganlar.

Eneolit va bronza davrlariga kelib ishlab chiqaruvchi xo'jalik yanada rivojlanib, metallurgiyaning paydo bo'lishi, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va binokorlik sohalarining taraqqiy etishi jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. Bronzaning kashf etilishi mehnat qurollarining sifatini oshirib, dehqonchilik va chorvachilik mahsuldorligini sezilarli darajada ko'paytirdi.

Bronza davrida O'rta Osiyoda xo'jalik faoliyati hududiy xususiyatlarga ko'ra tabaqalanib bordi: janubiy hududlarda o'troq dehqonchilik va chorvachilik, markaziy va shimoliy-sharqiy hududlarda esa chorvachilik, ovchilik va baliqchilik yetakchi o'rin egalladi. Tozabog'yob, Amirobod, Qayroqqum, Zamonbobo, Sopollitepa va Jarqo'ton kabi madaniyatlar bu jarayonlarning yorqin namunalari bo'lib, ularning arxeologik yodgorliklari orqali o'sha davr xo'jaligi, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlari haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin.

Umuman olganda, O'rta Osiyo hududida insoniyat xo'jaligining rivojlanishi tabiat sharoiti, geografik muhit va tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq holda kechgan. Bu jarayonlar keyingi davrlarda yuksak dehqonchilik madaniyati va sivilizatsiyalar shakllanishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilgan





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. Moskva: MGU, 1948.
2. Asqarov A.A. O'rta Osiyoning bronza davri madaniyatlari. Toshkent: Fan, 1977.
3. Masson V.M. Neolit i eneolit Sredney Azii. Leningrad: Nauka, 1981.
4. Okladnikov A.P. Drevnie kul'tury Sredney Azii. Moskva–Leningrad, 1965.
5. Zadneprovskiy Y.A. Chustskaya kul'tura Ferganskoy doliny. Toshkent: Fan, 1962.
6. G'ulomov Y.G'. Xorazmning qadimgi sug'orish tarixi. Toshkent: Fan, 1957.
7. Dani A.H., Masson V.M. History of Civilizations of Central Asia. Vol. I. Paris: UNESCO, 1992.
8. Litvinskiy B.A. Eneolit i bronza Yuzhnoy Sredney Azii. Moskva: Nauka, 1972.

